

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

“SHUM BOLA” ASARINING INGLIZCHA TARJIMASIDA BOLALAR DISKURSINING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Xolmirzayev Baxtiyor Mirzamahmudovich
Xakimova Mohichexra Abdulboqi qizi

Namangan davlat texnika universiteti, dotsent.

Namangan davlat universiteti, tayanch doktorant,

e-mail: bahtiyorxolmirzayev1@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0003-8261-2878>

e-mail: khakimovamohichehra@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0005-0538-2081>

Аннотация.

Kirish. Maqolada G'afur G'ulomning “Shum bola” qissasi va uning inglizcha “Naughty boy” tarjimasida bolalar diskursining lingvopragmatik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot materialini sifatida 54 ta pragmatik birlik tanlab olinib, ular murojaat birliklari, laqablar, undov va emotsional birliklar, dialogik konstruksiyalar, hazil-komizm vositalari hamda psixologik birliklarga ajratildi. Qiyosiy, diskursiv-pragmatik, kontekstual va elementar miqdoriy tahlil usullari asosida tarjima strategiyalari hamda ularning kommunikativ natijalari aniqlandi. Natijalar ekvivalent tarjima bolalar nutqining soddaligi, spontanligi va emotsionalligini ko'p hollarda saqlaganini, adaptatsiya va generalizatsiya esa matnni ingliz o'quvchisiga tushunarli qilgan holda ayrim milliy-diniy va ijtimoiy konnotatsiyalarni susaytirganini ko'rsatdi. Laqablar, komik vaziyatlar va psixologik birliklarda asosiy pragmatik ta'sir saqlangan bo'lsa-da, “xalfana”, “mulla aka”, “domla” va “boyvachcha” kabi birliklarda madaniy yo'qotish kuzatildi. Tadqiqot bolalar adabiyoti tarjimasida semantik ekvivalentlik bilan birga pragmatik va madaniy ekvivalentlikni ham muvozanatli ta'minlash zarurligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: bolalar diskursi, lingvopragmatika, badiiy tarjima, pragmatik ekvivalentlik, adaptatsiya, laqab, komizm, emotsionallik.

ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДЕТСКОГО ДИСКУРСА В АНГЛИЙСКОМ ПЕРЕВОДЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «SHUM BOLA»

Холмирзаев Бахтиёр Мирзамахмудович
Хакимова Мохичехра Абдулбоки кизи

Наманганский государственный технический университет, доцент.

Наманганский государственный университет, базовый докторант.

Аннотация.

В статье проводится сопоставительный анализ лингвопрагматических особенностей детского дискурса в повести Гафура Гуляма «Shum bola» и ее английском переводе «Naughty boy». Материал исследования составили 54 прагматические единицы, распределенные по шести группам: обращения, прозвища, междометные и эмоциональные единицы, диалогические конструкции, средства юмора и комизма, а также психологические единицы. С помощью сравнительного, дискурсивно-прагматического, контекстуального и элементарного количественного методов определены переводческие стратегии и их коммуникативные последствия. Результаты показывают, что эквивалентный перевод в основном сохраняет простоту, спонтанность и эмоциональность детской речи. Адаптация и генерализация делают текст понятнее англоязычному читателю, однако частично ослабляют национальные, религиозные и социальные коннотации. Основной прагматический эффект сохраняется в прозвищах, комических эпизодах и психологических единицах, тогда как культурно маркированные слова «xalfana», «mulla aka», «domla» и «boyvachcha» передаются с частичной потерей. Сделан вывод о необходимости сочетать семантическую, прагматическую и культурную эквивалентность при переводе детской литературы.

Ключевые слова: детский дискурс, лингвопрагматика, художественный перевод, прагматическая эквивалентность, адаптация, прозвище, комизм, эмоциональность.

LINGUOPRAGMATIC FEATURES OF CHILDREN'S DISCOURSE IN THE ENGLISH TRANSLATION OF "SHUM BOLA"

Xolmirzayev Baxtiyor Mirzamahmudovich
Xakimova Mohichexra Abdulboqi qizi

Namangan State Technical University, Associate Professor.
Namangan State University, Doctoral Researcher.

Abstract.

This article comparatively examines the linguopragmatic features of children's discourse in Gafur Gulom's novella "Shum bola" and its English translation "Naughty boy." The corpus comprises 54 pragmatic units classified as forms of address, nicknames, interjections and emotional units, dialogic constructions, humorous devices, and psychological units. Comparative, discourse-pragmatic, contextual, and basic quantitative methods are used to identify translation strategies and their communicative effects. The findings show that equivalent translation generally preserves the simplicity, spontaneity, and emotionality of children's speech, whereas adaptation and generalization improve accessibility for English readers but may weaken national, religious, and social connotations. The main pragmatic effect is retained in nicknames, humorous episodes, and psychological units; however, culture-specific items such as "xalfana," "mulla aka," "domla," and "boyvachcha" undergo partial pragmatic loss. The study argues that translating children's literature requires a balance between semantic, pragmatic, and cultural equivalence.

Keywords: children's discourse, linguopragmatics, literary translation, pragmatic equivalence, adaptation, nickname, humour, emotionality.

Kirish. Bolalar diskursi bolaning dunyoni idrok etishi, hissiy munosabati va ijtimoiy tajribasini til vositalari orqali namoyon qiladigan o'ziga xos kommunikativ hodisadir. Unda spontanlik, qisqalik, bevositalik, emotsionallik, o'yinqaroqlik va baholovchanlik yetakchi belgilar sifatida ko'zga tashlanadi. Badiiy asarda yaratilgan bola obrazi nutqi ham ana shu xususiyatlar orqali ishonarli tus oladi. Tarjima jarayonida mazkur belgilarni saqlash faqat lug'aviy ma'noni o'g'irish bilan cheklanmaydi; tarjimon qahramonning yoshi, ruhiy holati, ijtimoiy munosabati va matnning kulgi uyg'otish imkoniyatini ham qayta yaratishi lozim.

G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasi bolalar dunyoqarashi va xalqona kulgining tabiiy uyg'unligi bilan ajralib turadi. Qissadagi qisqa dialoglar, laqablar, undovlar, kinoyaviy vaziyatlar va ichki monologlar bosh qahramonning sho'x, qiziquvchan hamda ta'sirchan tabiatini ochib beradi. Avvalgi tadqiqotlarda asar tarjimasidagi milliy yumor, madaniy birliklar va pragmatik tafovutlar alohida ko'rib chiqilgan [1-6]. Biroq bolalar diskursining turli qatlamlarini yagona lingvopragmatik tizim sifatida tasniflash, ularning tarjima strategiyalarini yagona korpus doirasida qiyoslash va pragmatik natijalarni umumlashtirish zarurati saqlanib qolmoqda.

Maqolaning maqsadi — "Shum bola" qissasi va uning ingliz tilidagi tarjimasida bolalar diskursini shakllantiruvchi birliklarni aniqlash, ularning tarjima strategiyalarini tavsiflash hamda semantik, pragmatik va madaniy ekvivalentlik darajasini baholashdir. Tadqiqot quyidagi savollarga javob izlaydi: 1) bolalar diskursi qaysi lingvopragmatik birliklar orqali yuzaga chiqadi; 2) bu birliklarni tarjima qilishda qaysi strategiyalar ustun; 3) qaysi holatlarda pragmatik ta'sir saqlanadi yoki kamayadi; 4) milliy-madaniy kolorit va tushunarliklik o'rtasidagi muvozanat qanday ta'minlangan?

Adabiyotlar tahlili

"Shum bola" tarjimasida bo'yicha mavjud tadqiqotlar, avvalo, milliy yumor va madaniy birliklarni uzatish masalasiga qaratilgan. Berdiyeva asardagi xalqona kulgi, milliy assotsiatsiya va tarjima ekvivalentligini turli jihatlardan tahlil qilib, yumorning faqat leksik ma'noga emas, balki vaziyat, personaj xarakteri va madaniy fon uyg'unligiga tayanganini ko'rsatadi [1, 4, 5]. Safarova, Berdiyeva hamda Nabiyeva asarning inglizcha variantidagi tarjima muammolari va tafovutlarini yoritib, ayrim realiyalar hamda obrazli birliklarda ma'no saqlansa-da, uslubiy bo'yoqning qisqarishini qayd etadilar [3, 6]. Utkerovna esa tarjimon mahoratini original ruhini qayta yaratish, tabiiy inglizcha ifodani tanlash va milliy birliklarni izohlash bilan bog'laydi [12].

Pragmatik ekvivalentlik masalasi madaniy ishoralarni tarjima qilishda ayniqsa muhimdir. Bekmurodova, Djumabaeva va Madiyorova o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjimada madaniy referenslarning mazmuniy muqobili topilgani bilan ularning ijtimoiy yoki emotsional vazifasi har doim ham to'liq tiklanmasligini ta'kidlaydilar [2]. Bu xulosa "mulla aka", "domla", "boyvachcha", "xalfana" kabi birliklarni tahlil qilish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki bunday birliklar bir vaqtning o'zida nominativ ma'no, ijtimoiy maqom, hurmat, tarixiy muhit va baholashni ifodalaydi.

Asarning badiiy va psixologik talqiniga bag'ishlangan tadqiqotlar ham muhim. Norboboyeva hayot haqiqati va badiiy talqinni, Musayeva esa davr voqeligining tasvirini yoritadi [7, 8]. Navro'zova bola obrazining psixologik qirralarini, Soatov kognitiv-lingvomadaniy jihatlarni, Ubaydullayev esa emotsional-bo'yoqdor so'zlarni tahlil qiladi [9-11]. Biroq bu qatlamlarni yagona korpus asosida pragmatik va miqdoriy mezonlar bo'yicha qiyoslaydigan tadqiqotlar yetarli emas.

Tadqiqot metodologiyasi


Tadqiqotning asosiy materiali G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasi va uning ingliz tilidagi "Naughty Boy" tarjimasidan olingan parchalardan iborat. Korpus maqsadli tanlama asosida shakllantirildi: bolalar nutqining kommunikativ maqsadi, emotsional holati, baholash xususiyati yoki milliy-madaniy mazmunini ochib beruvchi 54 ta birlik ajratildi.

Birliklarni guruhlashda funksional-semantik mezon qo'llanildi. Murojaat shakllari ishtirokchilar o'rtasidagi masofa va maqomni, laqablar identifikatsiya va baholashni, undovlar hissiy reaksiyani, dialogik konstruksiyalar spontanlik va navbat almashinuvini, komik vositalar kulgi hosil qilish mexanizmini, psixologik birliklar esa qahramonning ichki kechinmalarini ifodalashiga ko'ra tasniflandi.

Jadval 1. Tadqiqot korpusining tarkibi

Birlik turi	Soni	Asosiy pragmatik vazifa
Murojaat birliklari	15	Ijtimoiy masofa, hurmat, yaqinlik va rolni ifodalash
Laqablar	13	Identifikatsiya, baholash va komik xarakter yaratish
Undov va emotsional birliklar	10	Hayrat, norozilik, qo'rquv, rag'bat va kulgini ifodalash
Dialogik konstruksiyalar	5	Qisqalik, spontanlik va tezkor navbat almashinuvini ko'rsatish
Hazil va komik vositalar	3	Vaziyat komizmi va bolalarcha mantiqni yuzaga chiqarish
Psixologik birliklar	8	Ichki kechinma, ikkilanish va o'zini anglashni ifodalash
Jami	54	—

1-jadvaldagi taqsimot korpusda murojaat birliklari va laqablar yetakchi o'rin tutishini ko'rsatadi. Ular jami materialning 51,9 foizini tashkil etadi. Bu holat "Shum bola"dagi bolalar muloqoti ko'proq guruh ichidagi munosabat, identifikatsiya va baholash orqali qurilganini anglatadi. Undov va emotsional birliklar 18,5 foiz, psixologik birliklar 14,8 foiz, dialogik konstruksiyalar 9,3 foiz, hazil-komik vositalar esa 5,6 foizni tashkil etdi. Mazkur miqdoriy ko'rsatkichlar sifat tahlilini yo'naltiruvchi yordamchi dalil sifatida qo'llandi.



1-rasm. Tadqiqot korpusidagi lingvopragmatik birliklarning taqsimoti

1-rasmda ko'rinib turganidek, korpusning asosiy qismini bevosita shaxslararo munosabatni ifodalovchi birliklar tashkil etadi. Shuning uchun tarjima sifatini baholashda lug'aviy moslikdan tashqari, qahramonlar o'rtasidagi yaqinlik, hurmat, masxara, guruhiiy identifikatsiya va bolalarcha baholash kabi omillar ham hisobga olindi.

Tahlilda qiyosiy-tavsifiy, diskursiv-pragmatik, kontekstual hamda elementar miqdoriy usullar uyg'unlashtirildi. Har bir birlik uchun original shakl, tarjima varianti, qo'llangan strategiya va pragmatik natija belgilandi. Strategiyalar ekvivalent tarjima, adaptatsiya, generalizatsiya, konkretizatsiya, transliteratsiya, kalkalash va so'zma-so'z tarjima kabi toifalarda qayd etildi. Pragmatik natija esa uch mezon asosida baholandi: kommunikativ funksiyaning saqlanishi, emotsional ta'sirning qayta yaratilishi va milliy-madaniy konnotatsiyaning uzatilishi.

Tahlil to'rt bosqichda amalga oshirildi: avvalo original va tarjimadagi mos parchalar ajratildi; keyin birliklar funksional guruhlariga kodlandi; uchinchi bosqichda tarjima strategiyasi belgilandi; yakunda pragmatik natija semantik, emotsional va madaniy mezonlar asosida izohlendi. Miqdoriy ko'rsatkichlar birliklar soni va umumiy korpusdagi ulushi asosida hisoblandi. Tahlilning asosiy maqsadi statistik umumlashtirish emas, balki aniqlangan tendensiyalarni matn konteksti asosida izohlashdan iborat bo'ldi.

Tadqiqot bir asar va uning bitta inglizcha tarjimasini bilan cheklangan. Shu sababli natijalar barcha bolalar adabiyoti tarjimalariga to'liq tatbiq etilmaydi; ular "Shum bola" materiali asosida kuzatilgan tendensiyalarni ifodalaydi.

Natijalar va ularning tahlili

Dialogik konstruksiyalar va spontanlikning tarjimada berilishi

Tahlil qilingan dialoglarda qisqa replikalar, tezkor savol-javob va oldindan rejalashtirilmagan qaror asosiy xususiyat sifatida namoyon bo'ldi. "Xalfana" tashkil qilish sahnasida replika hajmi va navbat almashinuvi inglizcha matnda deyarli o'zgarmagan. Natijada bolalar muloqotining harakatchanligi saqlangan. Biroq "xalfana"ning "clubbing" shaklida berilishi mazmuni tushunarli qilgan bo'lsa-da, o'zbek bolalarining jamoaviy yig'iniga xos madaniy ma'noni to'liq ifodalamaydi.

Jadval 2. Dialogik konstruksiyalarning pragmatik transformatsiyasi

Original matn	Tarjima matni	Strategiya	Pragmatik natija
– Bolalar, xalfana qilamizmi?	– Boys, let's do clubbing, shall we?	Adaptatsiya	Dialog maqsadi saqlangan, milliy mazmun qisqargan
– Bo'пти.	– Alright.	Ekvivalent tarjima	Qisqalik saqlangan
– Qayerda?	– Where?	Ekvivalent tarjima	Dialog dinamikasi saqlangan
– Rizqi xalfaning ko'chib ketgan hovlisida.	– At the yard of Rizki halfa.	Transliteratsiya	Joy va milliy muhit qisman saqlangan

Dialoglar bo'yicha natijalar shuni ko'rsatdiki, sintaktik qisqalik va kommunikativ maqsad, odatda, ekvivalent tarjima orqali saqlangan. Madaniy realiya qatnashgan replikalarda esa adaptatsiya yoki transliteratsiya zarur bo'lgan. Shuning uchun dialogning formal dinamikasi kuchli saqlansa-da, uning sotsiomadaniy fonida qisman siljish yuz bergan.

Murojaat birliklari va ijtimoiy munosabatlar

Murojaat birliklari personajni identifikatsiya qilish bilan birga yosh, qarindoshlik, hurmat, yaqinlik va ijtimoiy maqomni bildiradi. Universal yoki ingliz tilida funksional muqobili mavjud birliklar ("azizim", "o'g'lim", "mehmon") nisbatan muvaffaqiyatli tarjima qilingan. "Mulla aka", "domla", "hazrat" va "boyvachcha" kabi birliklarda esa diniy yoki ijtimoiy konnotatsiya qisqargan.

Jadval 3. Murojaat birliklarining tarjimadagi pragmatik natijalari

Original birlik	Tarjima varianti	Strategiya	Pragmatik natija
Asra!	Asra!	Ekvivalent	Shaxs identifikatsiyasi saqlangan
Kal!	Hey, baldy!	Adaptatsiya	Komik ta'sir saqlangan
Mulla aka	Dear brother	Generalizatsiya	Diniy maqom va hurmat uyg'unligi kamaygan
Boyvachcha	Rich man	Generalizatsiya	Ijtimoiy qatlamga xos bo'yoq qisman yo'qolgan
Pochcha	Brother-in-law	Konkretizatsiya	Qarindoshlik munosabati aniq berilgan
Amma	Aunt	Ekvivalent	Qarindoshlik mazmuni saqlangan
Bolalar!	Boys!	Ekvivalent	Guruhga murojaat funksiyasi saqlangan
Domla	Teacher	Adaptatsiya	Pedagogik funksiya saqlanib, diniy ma'no neytrallashtirgan
Azizim	My dear	Ekvivalent	Emotsional yaqinlik saqlangan
Aka	Brother	Adaptatsiya	Qarindoshlik ma'nosi berilgan, hurmat komponenti qisqargan
O'g'lim	My son	Ekvivalent	Kattaning mehr va homiylik munosabati saqlangan
Hoy!	Hey!	Ekvivalent	E'tibor jalb qilish funksiyasi saqlangan
Mehmon	Guest	Ekvivalent	Ijtimoiy rol saqlangan
Birodar	Brother	Generalizatsiya	Diniy-ijtimoiy ma'no qisqargan
Hazrat	Sir	Adaptatsiya	Hurmat saqlangan, milliy-diniy kolorit pasaygan

Laqablarning identifikatsion va baholovchi funksiyasi

Laqablar bolalar diskursida tezkor identifikatsiya, tashqi ko'rinish yoki xulqni baholash va kulgi hosil qilish vazifasini bajaradi. Tahlil qilingan misollarda "jinni", "kal", "qovoq", "it" kabi komponentlar personajning guruh ichidagi obrazini bir necha so'z bilan belgilaydi. Tarjimada ekvivalent va adaptatsiya strategiyalari komik yoki salbiy bahoni ko'p hollarda saqlagan. Kalkalash va so'zma-so'z tarjima esa semantik obrazni uzatgan, ammo inglizcha tabiiylikni ayrim hollarda pasaytirgan.

Jadval 4. Laqablarning tarjima strategiyalari va pragmatik funksiyalari

Original birlik	Tarjima varianti	Strategiya	Pragmatik natija
Asra kal	Hey, baldy	Adaptatsiya	Tashqi ko'rinishga asoslangan komik

			baholash saqlangan
Karim jinni	Mad Karim	Ekvivalent	Baholovchi va identifikatsion funksiya saqlangan
Tojixon jinni	Crazy Tojikhon	Ekvivalent	Komik va baholovchi funksiya saqlangan
Malla jinni	Malla Crazy	Kalkalash	Identifikatsiya saqlangan, tabiiylik pasaygan
Olim jinni	Olim the Mad	Ekvivalent	Guruh ichidagi identifikatsiya saqlangan
Mayramxon	Mayramkhan Stupid	Adaptatsiya	Baholovchi komponent kuchaygan
Xol parang	Khol Parang Idiot	Adaptatsiya	Salbiy ekspressivlik oshgan
Juft kaptar	Pair of Doves	So'zma-so'z tarjima	Metaforik obraz saqlangan, xalqona assotsiatsiya qisqargan
Eshon oyi	Eshon Mother	Kalkalash	Milliy kolorit qisman saqlangan
It Obid	Obid Dog	Adaptatsiya	Komik identifikatsiya saqlangan
Bit Obid	Obid	Tushirib qoldirish	Salbiy baholash yo'qolgan
Nabi og'ri	the thief Nabi Parang	Konkretizatsiya	Xarakteristika aniqroq ochilgan
Yoqub qovoq	Yokub Pumpkin	So'zma-so'z tarjima	Komik ta'sirning asosiy qismi saqlangan

Natijalarga ko'ra, laqabning nominativ qismi saqlanishi uning pragmatik kuchi to'liq uzatilganini har doim ham anglatmaydi. "Bit Obid" misolida baholovchi komponentning tushirib qoldirilishi laqabning salbiy ekspressivligini yo'qotgan. "Juft kaptar" va "Yoqub qovoq" misollarida esa obraz saqlangan bo'lsa-da, o'zbek o'quvchisi uchun tabiiy bo'lgan xalqona assotsiatsiya ingliz o'quvchisida bir xil darajada yuzaga kelmasligi mumkin.

Undov va emotsional birliklarning tarjimasi

Undovlar bolalar nutqidagi hayrat, norozilik, quvonch, qo'rquv va rag'batni bevosita ifodalaydi. "Voy!", "Hoy!", "Eh!" kabi birliklarning qisqa va vaziyatga bog'liq tabiati tarjimada tayyor funksional muqobillar orqali yaxshi saqlangan. Salbiy baholovchi birliklarda esa adaptatsiya ularning keskinlik darajasini o'zgartirgan.

Jadval 5. Undov va emotsional birliklarning tarjima qilinishi

Original birlik	Tarjima varianti	Strategiya	Pragmatik natija
Voy!	Wow!	Ekvivalent	Hayrat va hissiy reaksiya saqlangan
Hoy!	Hey!	Ekvivalent	E'tibor jalb qilish funksiyasi saqlangan
Hoy, hoy!	Hey, hey!	Ekvivalent	Kuchaytirilgan murojaat saqlangan
Ahmoqsan!	You are foolish!	Adaptatsiya	Salbiy baholash saqlangan
Voy, ahmoq!	Hey, you, silly!	Adaptatsiya	Emotsional baholash yumshatilgan
Ha-ha!	Ha-ha!	Ekvivalent	Kulgi effekti saqlangan
Rostdanmi?	Is that really you?	Adaptatsiya	Hayrat ma'nosi saqlangan
Xudoyo!	Oh my God!	Ekvivalent	Kuchli emotsional holat saqlangan
Eh!	Eh!	Ekvivalent	Norozilik va istehzo saqlangan
Barakalla!	Well done!	Adaptatsiya	Rag'batlantirish funksiyasi saqlangan

"Voy, ahmoq!" birligining "Hey, you, silly!" shaklida berilishi tanbeh va hissiy munosabatni saqlagan, lekin originaldagi salbiylikni yumshatgan. Demak, emotsional funksiya yetkazilgan bo'lsa ham, ekspressiv intensivlik bir xil emas. Bu holat bolalar nutqini ingliz o'quvchisiga nisbatan muloyimroq ko'rsatadi.

Komik vaziyatlar va bolalarcha mantiq

Qissada komizm ko'pincha qahramonning niyati bilan natija o'rtasidagi nomuvofiqlik, tajribasizlik va mantiqiy absurdlik orqali hosil bo'ladi. Tuxumni qalpoq ostiga yashirish epizodida voqeaning vizual va mazmuniy komponentlari inglizcha matnda saqlangan. Shu sababli kulgi bilan birga qahramonga nisbatan hamdardlik ham yuzaga keladi.

Jadval 6. Tuxum epizodidagi vaziyat komizmining tarjimasi

Original epizod	Tarjima varianti	Strategiya	Pragmatik natija
Oyim boshimga o'qlov bilan urganda qalpoq tagida bo'lgan tuxum pachaqlangan edi.	When my mother hit my head with the stick, the hidden egg got broken.	Ekvivalent tarjima	Vaziyat komizmi saqlangan
Uning sarig'i oqqa aralashib, chakkamdan sirqib, yuzimga oqmoqda edi.	Its yolk mixed with the white and came down my face.	Ekvivalent tarjima	Vizual komizm saqlangan
Oyim: "Bola bechoraning boshini yorib, qatig'ini chiqarib yubordimmi", deb esi chiqib ketgan ekan.	My mother got frightened, thinking that she had broken my head.	Adaptatsiya	Emotsional ta'sir saqlangan, xalqona obraz qisqargan

Absurd-komik dialoglarda ham asosiy mantiqiy ziddiyat saqlangan. Tojixon jinni barcha odamlarning bir tomonga yurishini tartib deb biladi, Olim jinni esa bunday holatda Yer bir tomonga og'ib ketishini aytadi. Inglizcha variant ushbu noto'g'ri, ammo ichki jihatdan izchil mantiqni qayta yaratadi. Natijada dialogning kulgi uyg'otish va personajlar dunyoqarashini ochish funksiyasi saqlanadi.

Jadval 7. Absurd-komik dialogning qiyosiy ko'rinishi

Original matn	Inglizcha tarjima
– Nimaga odamlar bir tomonga yurmasdan, har qayoqqa tarqalib yuradi? Nikolay poshsho zamonida tartib-intizom kerak, bir tomonga yursin-da! – Ahmoqsan, Toji, ahmoqsan. Yer, axir, taroziga o'xshagan narsa bo'ladi, hamma bir tomonga yursa, yer barkashday bir yoqqa og'ib, hammamiz Qurdum daryoga g'arq bo'lib ketamiz-ku.	– Why don't people walk in one direction? During the reign of Nikolay we need order here; they have to walk in one direction! – You are foolish, Toji. The Earth needs balance. If everybody walks on one side, the Earth will sink to one side and we will fall into the Khurdum River.

Psixologik birliklar va qahramonning ichki dunyosi

Psixologik birliklar qahramonning o'zini kattalardek his qilishi, tan olinishga intilishi, uyalishi, qo'rquvi va ikkilanishini ifodalaydi. "Mana endi o'sib ham qoldim" jumlasining "Now I had become a big boy" tarzida berilishi biologik o'sishdan ko'ra o'zini anglash va mustaqillikka intilish ma'nosini saqlaydi. "Odamlar menga ishonadigan bo'ldi" jumlasida "odamlar"ning "adults" deb konkretlashtirilishi bolaning aynan kattalar e'tirofiga bo'lgan ehtiyojini kuchliroq ko'rsatadi.

"O'kinaman, o'zimni o'zim koyiymen, ba'zan-ba'zan yig'lab qo'yaman. Ammo shu holda uyga qaytish qiyin" jumlasida "I cried and sometimes scolded myself. But I couldn't go back home in this condition" shaklida berilgan. Tarjima aybdorlik va iztirobni uzatadi, biroq originaldagi uyat hissining kengroq kontekstini qisqartiradi. "Xo'sh, endi o'zimizga navbat, o'zginamiz, ya'ni men nima qilaman, qayerga boraman?" kabi ichki savollar esa qahramonning ruhiy beqarorligi va yolg'izlik hissini saqlab qoladi.

Korpusdagi psixologik birliklarning qariyb 90 foizi ekvivalent tarjima asosida berilgan. Natijada qahramonning faxrlanishi, qo'rquvi, ikkilanishi, o'zini baholashi va mustaqillikka intilishi inglizcha matnda ham anglashiladi. Asar davomida bosh qahramon qiziquvchan, tez hayajonlanuvchi, hissiyotlarga boy, tajribasiz, ammo faol bola sifatida gavdalanadi.

Natijalarni umumiy muhokama qilish

Natijalar bolalar diskursi tarjimasida strategiya tanlovi birlikning universalligi yoki madaniy xosligiga bevosita bog'liq ekanini ko'rsatadi. "Voy!", "Hoy!", "o'g'lim", "mehmon" kabi funksional muqobili mavjud birliklarda ekvivalent tarjima semantik ma'no bilan birga kommunikativ ta'sirni ham saqlaydi. Bu holat emotsional va dialogik birliklarning tarjimada nisbatan kam yo'qotishga uchrashi haqidagi qarashlarni tasdiqlaydi [3, 6].

Madaniy xos birliklarda esa tarjimon ikki vazifa o'rtasida tanlov qiladi: originalning milliy koloritini saqlash yoki tarjima o'quvchisi uchun tez tushunarli shakl yaratish. "Mulla aka"ning "dear brother", "domla"ning "teacher", "boyvachcha"ning "rich man" tarzida berilishi kommunikativ rolni tushunarli qiladi, ammo birlikning tarixiy, diniy yoki ijtimoiy qatlamini neytrallashtiradi. Bekmurodova, Djumabaeva va Madiyorova madaniy birliklarda pragmatik ekvivalentlik semantik muqobillikdan murakkabroq ekanini ta'kidlaydilar [2]. Mazkur tadqiqot natijalari ham shu fikrni tasdiqlaydi.

Laqablar tarjimasida mazmuniy obrazni saqlashning o'zi yetarli emas. Laqabning tabiiy eshitisilishi, baholash intensivligi va guruh ichidagi munosabatni ham uzatish zarur. "Pair of Doves" yoki "Yokub Pumpkin" semantik jihatdan tushunarli bo'lsa-da, o'zbek tilidagi xalqona yumor va assotsiativ fon to'liq qayta yaratilmaydi. Berdiyeva tadqiqotlarida "Shum bola" tarjimasidagi milliy yumor va madaniy assotsiatsiyalarning qisman yo'qolishi qayd etilgan [1, 4, 5]. Bizning tahlilimiz ham bu yo'qotish ayniqsa laqablar va madaniy murojaatlarda kuchli ekanini ko'rsatdi.

Komik epizodlarda voqea ketma-ketligi, kutilmagan natija va vizual tafsilot saqlansa, kulgi effekti ham ko'pincha muvaffaqiyatli qayta yaratiladi. Tuxum epizodi bunga misoldir. Biroq komizm milliy frazeologizm yoki xalqona tasvirga tayansa, adaptatsiya emotsional vazifani saqlagan holda obrazning madaniy o'ziga xosligini kamaytirishi mumkin. Shuning uchun komik matn tarjimasida faqat "nimani anglatadi?" emas, balki "nega kulgili?" va "kim uchun kulgili?" degan savollar ham muhim.

Psixologik birliklarda tarjimaning muvaffaqiyatli bo'lishi ularning ko'pchiligi universal hissiy tajribaga tayanganligi bilan izohlanadi. Bolaning kattalar tomonidan tan olinishga intilishi, uyga qaytishdan uyalishi, qo'rquv va ikkilanish holati boshqa madaniyat vakili bo'lgan o'quvchi uchun ham tushunarli. Navro'zova va Soatov asardagi bola obrazining psixologik hamda kognitiv qirralariga e'tibor qaratadilar [9, 11]. Ushbu maqola esa mazkur qirralarning tarjimada, asosan, ekvivalent konstruksiyalar orqali saqlanganini ko'rsatadi.

Amaliy jihatdan, madaniy xos birliklar uchun aralash strategiya samaraliroq bo'lishi mumkin: transliteratsiya yoki asl shaklni saqlash, zarur hollarda esa qisqa kontekstual izoh berish. Masalan, "xalfana"ni shunchaki "clubbing" deb almashtirish o'rniga uning jamoaviy bolalar yig'ini ekanini matn ichida tabiiy tarzda tushuntirish milliy mazmun va tushunarlilikni birgalikda ta'minlaydi. Xuddi shuningdek, "domla" va "mulla aka" kabi birliklarni to'liq neytrallashtirmasdan, kontekst yordamida ularning diniy-ma'rifiy maqomini ko'rsatish mumkin.

Pragmatik ekvivalentlikning uch darajali talqini

Tahlil natijalarini semantik, pragmatik va madaniy ekvivalentlikning o'zaro bog'liq uch darajasi orqali umumlashtirish mumkin. Semantik ekvivalentlik birlikning asosiy lug'aviy mazmuni tarjimada qay darajada saqlanganini ko'rsatadi. Masalan, "o'g'lim — my son", "mehmon — guest" va "voy — wow" juftliklarida nominativ ma'no ancha to'liq uzatiladi. Biroq bunday moslikning o'zi kommunikativ ta'sirning to'liq qayta yaratilganini anglatmaydi. Pragmatik ekvivalentlik replikaning kim tomonidan, kimga, qanday vaziyatda va qaysi maqsadda aytilganini hisobga oladi. Shu nuqtayi nazardan, "aka — brother" tarjimasi qarindoshlik ma'nosini bersa-da, o'zbek nutqidagi hurmat va ijtimoiy yaqinlikni ingliz tilida aynan bir xil darajada ifodalamaydi. Demak, tarjima grammatik va lug'aviy jihatdan to'g'ri bo'lishi mumkin, ammo personajlar o'rtasidagi munosabatning nozik pragmatik belgilarini qisqartirishi ehtimoli mavjud.

Madaniy ekvivalentlik esa birlikning tarixiy, diniy, ijtimoiy va xalqona assotsiatsiyalarini qayta yaratish bilan bog'liq. "Xalfana", "mulla aka", "domla", "hazrat" va "boyvachcha" singari birliklarda aynan shu qatlam yetakchi ahamiyat kasb etadi. Ularni umumiy inglizcha so'z bilan almashtirish voqeani tushunishni osonlashtiradi, lekin asarning mahalliy muhitini neytrallashtiradi. Aksincha, faqat transliteratsiya qilish o'quvchiga milliy shaklni ko'rsatadi, biroq mazmunni izohsiz qoldirishi mumkin. Shu sababli madaniy realiyalar uchun ikki bosqichli yechim — asl shaklni yoki unga yaqin variantni saqlash va kontekst ichida juda qisqa funksional izoh berish — maqbulroq ko'rinadi. Bunday usul matnni ortiqcha sharhlar bilan og'irlashtirmasdan, milliy kolorit va tushunarlilik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga yordam beradi [2, 3, 6].

Bolalar diskursida tarjima yechimini tanlashda yoshga mos tabiiylik ham alohida mezon bo'lishi kerak. Katta yoshdagilar nutqiga xos rasmiy yoki murakkab ekvivalentlar qahramonning bolalarcha spontanligini susaytiradi, haddan tashqari yumshatish esa tanbeh, masxara yoki qo'rquvning intensivligini o'zgartiradi. Masalan, "Voy, ahmoq!"ning "Hey, you, silly!" shakli vaziyatning umumiy hissiy yo'nalishini saqlaydi, lekin salbiy baholash darajasini pasaytiradi. Shuning uchun tarjimon har bir birlik bo'yicha uch savolni birgalikda ko'rib chiqishi zarur: mazmun saqlandimi, replikaning kommunikativ vazifasi tiklandimi va madaniy-emotsional bo'yoq qanchalik qayta yaratildi? Mazkur uch mezon birgalikda qo'llanganda tarjimadagi yutuq yoki yo'qotish faqat alohida so'z darajasida emas, balki bola obrazi, dialog dinamikasi va asarning umumiy badiiy ta'siri doirasida baholanadi. Bu yondashuv "Shum bola" tarjimasidagi ayrim nomuvofiqliklarni izohlash bilan birga, bolalar adabiyotining boshqa namunalarini qiyosiy o'rganish uchun ham amaliy tahlil modeli vazifasini bajarishi mumkin.

Tadqiqotning asosiy cheklovi qiyosiy materialning bitta asar va bitta tarjima bilan chegaralanganidir. Shuningdek, pragmatik ta'sir matn tahlili asosida baholandi, ingliz tilidagi real kitobxonlarning qabul qilish reaksiyasi esa eksperimental yo'l bilan o'rganilmadi. Keyingi tadqiqotlarda bir nechta tarjima variantlarini qiyoslash, o'quvchi so'rovlari hamda korpus-statistik usullarni qo'llash natijalarni yanada mustahkamlashi mumkin.

Xulosalar

"Shum bola" qissasi va uning inglizcha tarjimasining qiyosiy tahlili bolalar diskursining asosiy lingvopragmatik tayanchlari murojaat birliklari, laqablar, undovlar, qisqa dialoglar, komik vaziyatlar va psixologik konstruksiyalardan iborat ekanini ko'rsatdi. Tahlil qilingan 54 ta birlik bolalar nutqining spontanligi, bevositaligi, emotsionalligi va baholovchanligini namoyon etadi.

Ekvivalent tarjima, ayniqsa, qisqa dialoglar, universal undovlar va psixologik holatlarni uzatishda samarali bo'lgan. Adaptatsiya va generalizatsiya tarjima matnining tushunarlilikini oshirgan, biroq "xalfana", "mulla aka", "domla", "hazrat", "boyvachcha" singari birliklarda milliy-diniy va ijtimoiy konnotatsiyani qisqartirgan. Laqablar hamda komik epizodlarda asosiy semantik va emotsional ta'sir saqlangan bo'lsa-da, xalqona assotsiatsiya va baholash intensivligi ayrim hollarda o'zgargan.

Umuman, "Naughty Boy" tarjimasida bolalar diskursining asosiy pragmatik modeli — soddalik, harakatchanlik, o'yinqaroqlik va hissiylik — yetarli darajada qayta yaratilgan. Shunga qaramay, pragmatik ekvivalentlik to'liq emas: eng katta yutuq dialogik spontanlik, komizm va bola psixologiyasini ifodalashda, eng sezilarli yo'qotish esa madaniy va ijtimoiy konnotatsiyalarni uzatishda kuzatiladi. Bolalar adabiyoti tarjimasida mazmunni tushunarli qilish bilan birga, milliy koloritni ham saqlash uchun ekvivalent tarjima, transliteratsiya, kontekstual izoh va ehtiyotkor adaptatsiyani uyg'un holda qo'llash maqsadga muvofiq.

Tadqiqotning amaliy natijasi shundan iboratki, bolalar adabiyotini tarjima qilishda madaniy birliklar uchun yagona strategiyaga tayanish maqsadga muvofiq emas. Universal hissiy birliklarda funksional ekvivalent, milliy

realiyalarda transliteratsiya va qisqa kontekstual izoh, laqablarda esa tabiiylik hamda baholash intensivligini birgalikda hisobga olgan aralash yondashuv samaraliroqdir. Kelgusida boshqa tarjima variantlari hamda ingliz tilidagi kitobxonlarning qabul qilish reaksiyasini qiyosiy o'rganish ushbu xulosalarni yanada mustahkamlashi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Berdiyeva S. Conveying Uzbek National Humor in *Shum bola* and Evaluating Its Translational Equivalence in English // *Modern Science and Research*. – 2025. – Vol. 4. – No. 4. – P. 1708–1716.
2. Bekmurodova F., Djumabaeva J., Madiyurova V. Pragmatic Equivalence in the Translation of Cultural References from Uzbek into English // *AWEJ for Translation & Literary Studies*. – 2024. – Vol. 8. – No. 2. – P. 241–254.
3. Safarova Z. T., Berdiyeva S. U. Translation Problems of the Story *Naughty Boy* // *Modern Scientific Research International Scientific Journal*. – 2024. – Vol. 2. – Issue 2. – P. 10–16.
4. Berdiyeva S. National Culture and Humor in Gafur G'ulom's Story *Shum bola* // *Theoretical Aspects in the Formation of Pedagogical Sciences*. – 2025. – Vol. 4. – No. 21. – P. 61–63.
5. Berdiyeva S. U. *Shum bola* asarining tarjimasida milliy yumoristik xususiyatlar // *Meditsina, pedagogika i texnologiya: teoriya i praktika*. – 2024. – Vol. 2. – No. 4. – B. 420–430.
6. Nabiyeva G. G'. G'afur G'ulomning *Shum bola* asari tarjimasidagi tafovutlar xususida // *O'zMU xabarlar*. – 2024. – № 1. – B. 334–336.
7. Norboboyeva M. The Truth of Life and Art in the Fate of a *Shum bola* // *Current Research Journal of Philological Sciences*. – 2021. – Vol. 2. – P. 43–47.
8. Musayeva Sh. Qissalarda davr voqeligi tasviri (*Shum bola* va *Shum bolaning nabiralari* qissalari asosida) // *Tamaddun Nuri*. – 2024. – Vol. 12. – B. 359–363.
9. Soatov A. Education and Upbringing in Literature: The Cognitive and Linguacultural Aspects in *The Prime of Miss Jean Brodie* and *Shum bola* // *American Journal of Philological Sciences*. – 2025. – Vol. 5. – P. 65–69.
10. Ubaydullayev A. Methodical Application of Emotional-Coloring Words in the Language of Prose Works of Gafur G'ulom // *A Peer-Reviewed Journal About*. – 2020. – P. 1–5.
11. Navro'zova G. O'. G'afur G'ulomning *Shum bola* asarida obrazlarning psixologik talqini // *Innovations in Technology and Science Education*. – 2023. – Vol. 2. – Issue 10. – B. 731–736.
12. Utkerovna B. S. *Shum bola* asarining tarjimasida tarjimon mahorati // *Theoretical and Practical Foundations of Scientific Progress in Modern Society*. – Denmark, 2023. – Vol. 14. – No. 1.